Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqaro standartlar va zamonaviy tende...

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

XIZMAT KO‘RSATISH SOHALARINI TRANSFORMATSIYA QILISHDA RAQAMLASHTIRISHNING STRATEGIK O‘RNI

TDIU “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
VOXOBOV XIKMATILLO MA’MIRJON O‘G‘LI

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoi y-iqtisodiy rivojlanishi va kelgusi taraqqiyotini ilm-fan, ilmiy, ijtimoiy-gumanitar texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot asosida boshqarish tashkil etadi. Bu tizim raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashuv jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turadi. Raqamli iqtisodiyotbu noldan boshlab yaratilishi lozim bo‘lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas, buyangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko‘chirish deganidir. Raqamli iqtisodiyotning bir qancha afzalliklari hamda ijobiy tomonlari mavjud. Masalan, axborot-kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi inson uchun eng qimmatbaho bo‘lgan vaqtni tejashga, undan unumli foydalanishga ko‘maklashishi mumkin.

Biron bir kitobning chop etilgan ko‘rinishini sotib olish shu kitobning elektron formatini sotibolishdan qimmatroqqa tushadi. Bu borada mamlakatimizda yaratilayotgan tashkiliy-iqtisodiy shart-sharoitlarga e’tibor qaratsak, “Raqamli O‘zbekiston -2030» strategiyasida ”...zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to‘xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish, innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo‘yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, boshqaruv ma’lumotlarini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimini, jumladan, real vaqt rejimida biznes-tahlil tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish, 2025 yilda korxona resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ulushini 90 foizga yetkazish”vazifasi belgilangan [1].

Aynan iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali jamiyatdagi mavjud barcha platformani qamrab olgan holda samaradorlik ko‘rsatkichlariga, iqtisodiyotda yaratilayotgan qo‘shilgan qiymatlilikka, xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirishga bandlik muammosiga, daromadlilik darajasiga, xarajatlarni optimallashtirishga erishishga ta’sir ko‘rsatadi, bu esa xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirishni takomillashtirish borasidagi tadqiqotlarning dolzarbligini yanada oshiradi.

Published: 05.06.2026

Cite this article: Voxobov Xikmatillo Ma’mirjon o‘g‘li (2026). Xizmat ko‘rsatish sohalarini transformatsiya qilishda raqamlashtirishning strategik o‘rni. Emro Science and Education, 2(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/925

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Tadqiqot natijalari xizmatlar sohasida raqamlashtirish va ekologik barqarorlik tamoyillarining integratsiyasi xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish, resurslardan foydalanish barqarorligini ta’minlash hamda korxonalar faoliyatining ekologik izini kamaytirishda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Olingan natijalar asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha guruhlashtirilib, kompleks tahlil qilindi. O‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, xizmatlar sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish xizmat ko‘rsatish tezligini 25–40% ga oshirgan, qog‘oz sarfini esa 60–80% gacha kamaytirgan. Elektron hujjatlashtirish, onlayn xizmatlar hamda masofaviy boshqaruv tizimlari orqali korxonalar ekologik yuklamasini sezilarli darajada qisqartirish mumkinligi aniqlandi. Ushbu jarayon energiya sarfining optimallashuvi va chiqindilar hajmining kamayishi bilan bevosita bog‘liq ekani kuzatildi [2].

Tadqiqot natijalari xizmatlar sektorida “yashil raqamlashtirish” modelining amaliy samaradorligini ham tasdiqladi. Aqlli energiya tizimlari, IoT qurilmalari, raqamli o‘lchash va monitoring uskunalaridan foydalanish ekologik ko‘rsatkichlarni aniq va uzluksiz kuzatish imkonini berib, korxonalar uchun ekologik boshqaruv jarayonlarini soddalashtirdi. Natijalarga ko‘ra, raqamli monitoring tizimlari joriy etilgan korxonalarda resurs tejamkorlik darajasi 15–25% ga oshgan. Shuningdek, bulut texnologiyalaridan foydalanish IT infratuzilmasining energiya iste’molini kamaytirib, ekologik barqarorlikni ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida qayd etildi. Ekspert intervyulari natijalari xizmatlar sohasida raqamli transformatsiya ekologik boshqaruvni kuchaytirayotganini ko‘rsatdi. Jumladan, raqamli boshqaruv platformalari (ERP, CRM, IoT asosidagi tizimlar) ekologik xavfsizlik standartlariga rioya etilishini mustahkamladi. Energiyani nazorat qiluvchi aqlli sensorlar energiya sarfini 12–18% gacha kamaytirgan bo‘lsa, elektron navbat tizimlari transport yuklamasi va chiqindilar hajmining qisqarishiga xizmat qilgan. Video-analitika asosidagi monitoring tizimlari esa ekologik me’yorlarning buzilishi holatlarini tezkor aniqlash imkonini yaratgan[2].

Tadqiqot davomida raqamlashtirish va ekologik barqarorlikni integratsiyalash jarayoniga to‘sqinlik qiluvchi muammolar ham aniqlandi. Xususan, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ekologik talablar bo‘yicha bilim va malakaning cheklanganligi, kichik xizmat ko‘rsatish korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish xarajatlarining yuqoriligi hamda “yashil texnologiyalar”ni qo‘llash bo‘yicha rag‘batlantirish mexanizmlarining yetarli emasligi integratsiya jarayonini sekinlashtiruvchi omillar sifatida baholandi. Ushbu holatlar barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlariga erishishni murakkablashtiradi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari integratsiya jarayonining keng istiqbollarga ega ekanini ko‘rsatdi.

Raqamlashtirish ekologik boshqaruvni avtomatlashtirish, energiya iste’molini real vaqt rejimida nazorat qilish, chiqindilarni kamaytirish hamda xizmatlar samaradorligini oshirish orqali xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishini ta’minlash imkonini beradi. Xususan, “yashil raqamli xizmatlar” bozorining kengayib borayotgani, ekologik ahamiyatga ega raqamli innovatsiyalarning jadal rivojlanishi va mijozlar orasida ekologik mas’uliyatli xizmatlarga bo‘lgan talabning ortib borishi xizmatlar sektorida raqamli transformatsiya va ekologik samaradorlik o‘rtasidagi integratsiyani yangi bosqichga olib chiqish uchun muhim shart-sharoitlar yaratmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xizmatlar sohasida raqamlashtirish va ekologik barqarorlik tamoyillarining integratsiyasi zamonaviy iqtisodiyotda strategik ahamiyatga ega bo‘lib, korxonalarning raqobatbardoshligi, resurs tejamkorligi hamda ekologik xavfsizligini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish xizmatlar sifatini oshirish, operatsion jarayonlarni optimallashtirish, chiqindilar hajmini kamaytirish va energiya resurslaridan oqilona foydalanish imkonini yaratadi. Xususan, elektron xizmatlar, aqlli monitoring tizimlari, IoT qurilmalari va bulut texnologiyalari ekologik boshqaruv samaradorligini oshirib, korxona faoliyatining ekologik izini sezilarli darajada qisqartirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2020). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.

2. F.A.A’zamova, L.Sh. Kuldoshev Xizmatlar sohasida raqamlashtirish va ekologik barqarorlik: zamonaviy integratsiya yo‘nalishlari.

3.Porter, M., & Kramer, M. (2019). Creating Shared Value through Digital and Sustainable Innovation. Harvard Business Review.

4. Karimov, U., & Sattorov, A. (2022). Raqamli iqtisodiyot va xizmatlar sektorini transformatsiya qilish masalalari. Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim nashriyoti.

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —